

BUXORO AMIRLIGI TARIXNAVISLIK AN`ANALARINING ILMIY USLUBIY TAHLILI

Ramazonova Nilufar Nurali qizi

*Buxoro davlat universiteti “Tarixshunoslik, manbashunoslik
va ilmiy tadqiqot usullari” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

ANNOTATSIYA

Maqolada O`rta Osiyo xonliklari tarixnavislik an`analarining o`ziga xos uslublari haqida to`xtalib o`tiladi. Shuningdek, asosiy mavzu Buxoro amirligidagi mahalliy muarrixlarning asarlaridagi ma`lumotlar, ularning ishonchligi hamda ulardagi o`xshashlik va farqlar taqqoslab keltiriladi. Buxoro amirligi davridagi tarixshunoslik jarayonlari, mualliflar yondashuvi va tarixiy manbalar tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar:** Tarixnavislik an`analari, Ahmad Donish, Sadriddin Ayniy, Mirza Salimbek, Somiy, Fitrat, “Navodirul vaqoye”, Rossiya- Buxoro munosabatlari, Amir Sayid Olimxon.

АННОТАЦИЯ

В статье речь пойдет об уникальных стилях историографической традиции среднеазиатских ханств. Также основной темой является информация в трудах местных муаррихов Бухарского эмирата, их достоверность, а также сопоставление сходств и различий в них. Анализируются историографические процессы в Бухарском эмирате, авторский подход и исторические источники.

Ключевые слова: Традиции историографии, Ахмад Дониш, Садриддин Айний, Мирза Салимбек, Соми, Фитрат, «Наводирул вакойе», российско-бухарские отношения, Амир Саид Олимхан.

KIRISH

Musulmon Sharq tarixiy asarlari bizning hozirgi tushunchamizdagi tarixiy asar bo`lmay, balki adabiy-tarixiy hamda tarixiy-badiiy janrga taalluqli asarlardir. An`anaga binoan Sharq musulmon tarixchisi tarixiy- xronologik haqiqatni boy adabiy tasvir tili bilan tashbih, mubolag`a, istiora va mavjud bo`lgan barcha tasvir va bayon vositalari orqali berishi lozim edi. Aks holda yuqori saviyali Sharq o`quvchisi bunday asarni tan olmasdi. O`quvchi bu asarni mutolaa qilib, o`zining estetik, g`oyaviy talablarini ham qondirishi lozim bo`lgan.¹

Tarixiy asarlar zamonasining ma`naviy muhitini to`g`ridan-to`g`ri, bevosita o`zida mujassam etadi. Shuning uchun ular o`zlarida muayyan ijtimoiy intellektual guruh va tabaqalarning tafakkurlari, dunyoqarashlarini aks ettirgan.

¹ Бертельс Э.Э. Состояния работ по изучению истории таджикской литературы // Труды ИВ АН СССР, 1933. – С. 87.

Musulmon tarixnavisligi, jumladan O`rta Osiyo tarixnavisligi (историографияси) va tarixiy tafakkuri (историософияси) o`ziga xos an`analar va qoliplar chegarasida rivojlangan.<sup>2</sup> Unga ko`ra tarixchilar jahon tarixini an`anaviy muqaddimadan so`ng (tamhid, tasanno, na`t, salom, saltaniyat, vasf va fexristi kitobidan keyin) quyidagi tartibda bayon etadilar: Olamning yaratilishi: Odam Ato va Momo Havo tarixlari; Birinchi payg`ambarlar; Muhammad rosululloh va xalifai roshidin tarixlari; Ummaviylar; Abbosiylar; Hindiston va Xitoy tarixi; Qadimiy Eron shohlari; Sosoniylar tarixi; Safforiylar, somoniylar, g`aznaviylar, daylamiylar, saljuqiylar, g`uriylar, xorazmshohlar va ismoiliylarning davri; Arab xalqlari tarixi; Chingiz va chingiziylar tarixi; Temur va temuriylar tarixi; Shayboniylar tarixi; Ashtarxoniylar davri.

Qo`qon tarixnavislik maktabi namoyondalaridan Muhammad Hakimxon va Avaz Muhammad Attorning va Buxoro tarixchilaridan Mirza Salimbekning (“Kashkuli Salimiy”) jahon tarixiga bag`ishlangan asarlari yuqoridagi ta`riflarga misol bo`la oladi.

Yuqorida ta`kidlanganidek, musulmon muarrixlarining tarixiy asar yaratishda o`ziga xos uslublari va muayyan qolip shakllari mavjud. O`rta Osiyo xonliklari tarixchilarining katta qismi ham o`z asarlarini yaratishda ushbu uslublar va qolip shakllaridan foydalanishadi. Shuning uchun ham xonliklar davri tarixiy asarlari orasida mazmunan va shaklan bir-biriga yaqin bo`lgan asarlarni ko`rishimiz mumkin bo`lgan.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR

Ma`lumki, XIX asrning 2- yarmida Buxoro amirligi siyosiy hayotida tub burilishlar yuz beradi. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasiga aylanadi. Ushbu voqea mamlakat hayotining barcha jabhalariga o`z ta`sirini o`tkazmay qo`ymadi. Amirlik hayotining barcha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va harbiy sohalaridagi ahvoli, ulardagi o`zgarishlar mahalliy tarixchilar asarlarida o`z aksini topgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida o`nlab donishmand va olimlar jamiyat tarixi sohasida bir qancha asarlar yozgan edilar. Ularga misol qilib, Ahmad Donish, Somiy, Mirza Salimbek, Sadr Ziyo, Muhammad Ali Baljuvoni, Sayid Muhammad Nosir ibn Muzaffar, Sadriddin Ayniy, Fitrat va boshqalarni keltirish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ahmad Donish —qomusiy olim. Tarixchi, shoir, yozuvchi, muhandis, musavvir, yulduzshunos, tabobat ilmidan xabardor ma`rifatparvar olim edi. Olim tarixchi sifatida bizga 3ta tarixiy asarni meros qilib qoldiradi. Ulardan biri “Navodirul vaqoye” asaridir.

² Vohidov Sh. H. Qo`qon xonligida tarixnavislik. T.: Akademnashr. 2010 y.

Ahmad Donishning serqirra hayotiy tajribasi mahsuli hisoblangan “Navodirul vaqoye” (“Nodir voqealar”) asari allomalarning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy tabiiy-falsafiy yo`nalishga oid teran qarashlari hamda keng dunyoqarashini anglashda muhim o`rin tutadigan qomusiy asar hisoblanadi. Aynan mazkur asar allomaning eng yirik asari hisoblanib, turli masalalar to`g`risidagi fikrlari bayon etilgan.³

Asar XIX asrning 2-yarmi O`rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlarini, shuningdek, shu davrda Buxoro amirligida hukm surgan feodal davlat tartiblarini o`rganishda muhim ahamiyatga egadir. Muallif o`z fikrini ifodalashda adabiy qiyos, istiora va metafora usullaridan foydalangan.

Asarning tarixiy qiymati shundaki, unda muallifning Rossiya elchilik safari tafsilotlari keltiriladi. Xususan, elchilarning kutib olinishi, yig`ilish va to`y bazmlari, Rossiya aholisi, aristokratlar qatlami hayoti, kiyinishi, hatto ularning ruhiy holatlari, bozorlar va ulardagi tozalik, intizom, odob-axloq normalari, muzeylar va boshqa taassurotlar bilan bo`lishgan.

Shuningdek, biz asar orqali muallif tilidan, o`zining qiziqishlari, ta`lim olishi va faoliyati, yoshlik chog`lari haqida ma`lumotga ega bo`lishimiz mumkin.<sup>4</sup> Ahmad Donishning tarixnavislik bo`yicha yozilgan yirik asari “Risola yohud mang`itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” dir. Asar nomi shartli qo`yilgan. Tarjimon (Qiyomiddin Yo`ldoshev) tili bilan aytqanda asar “yurt hukmdorlarining jaholat va g`aflat botqog`iga botib ketishi, mas`uliyat va xushyorlikni yo`qotishlari, umrini o`tab bo`lgan aqidalarga o`ralashib yashashlari oqibatida mamlakat o`z mustaqilligidan mahrum bo`lishi tarixiga bag`ishlanadi”.⁵

Asar tili ancha murakkab va arab-fors tillariga xos murakkab unsurlar ko`p.<sup>6</sup> Asarni shartli 2 qismga bo`lish mumkin: birinchi qismda muallif faqat yozma manbalardan o`qishi yoki eshitishi mumkin bo`lgan voqealar haqida hikoya qiladi. Unda Amir Doniyol hukmronligining so`nggi yillari va uch amir: Shohmurod, Haydar va Nasrulloning (so`nggi yillari) hukmronligi to`g`risida bayon etiladi. Ikkinchi qismda muallif o`zi guvoh bo`lgan voqealar bayoni, xususan, Amir Muzaffar va Amir Abdulahad hukmronlik qilgan davrning tarixiy hodisalari tafsilotlariga to`xtaladi. Muqaddima va 7 bobdan iborat asarda muarrix mang`itlar sulolasi tarixining qariyb 138 yillik davrini xronologik tartibda tahlil etgan.⁷

Shuningdek, Ahmad Donishning tarixchi sifatidagi o`ziga xosligi, boshqa hech bir tarixchida uchramaydigan jihati shundan iboratki, u asarlarida o`z davrining muammolarini shunchaki sanab o`tib ketmaydi, balki ularga yechim topish maqsadida

³ Vohidov Sh. H. Qo`qon xonligida tarixnavislik. T.: Akademnashr. 2010 y.

⁴ A. Donish. “Navodirul vaqoye”. – B. 336-355

⁵ A. Donish. “Risola yohud mang`itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi”. Tarjima, izohlar va kirish so`zi muallifi Q. Yo`ldoshev. – Toshkent: “o`l.m.e.” davlat ilmiy nashriyoti; 2014

⁶ O`sha asar.

⁷ Naimov I.N. Ahmad Donishning ma`rifatparvarlik faoliyati va uning ilmiy merosi. (PhD) disertatsiya avtoreferati. 2022

o`z fikr-mulohazalari va takliflarini ilgari suradi.

Muhammad Ali ibni Muhammad Sayid Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy” nomli asari Buxoro amirligining XIX-XX asr boshlaridagi siyosiy tarixni yoritib beruvchi manbalardan hisoblanadi. Asarda Buxoro inqilobi, Sovet davlatining Buxoro amirligiga nisbatan olib borgan siyosati voqealar guvohi tilidan bayon qilinadi.⁸ Muallif asarning yozilish sababiga to`xtalib, Buxoro va Samarqanddagi do`stlarining iltimos va takliflariga binoan yozganligini ta`kidlaydi. Asarda Buxoro va Samarqanddagi madrasalar, masjidlar, avliyo va murshidlarning qabrlari, darvozalar haqida ma`lumot beradi.

Davlat amaldorlari, ularning vazifaga tayinlanishi, ozod etilishi, qo`shin, madrasalardagi ta`lim haqida, Abdulahadxon davri, jadidlar faoliyati, Koleshev voqeasi, Amir Olimxon davri, Buxoro amirligining bosib olinishi, Amir Olimxonning Afg`onistonga ko`chishi bayoni, “Kichik qiyomat”dan keyin Buxoroning ahvoli va bosmachilik harakati haqida bevosita o`zi guvohi bo`lgan yohud guvohlardan eshitkanlarini yozib qoldiradi. Asar kirish qismida uning 15 bobdan iborat ekanligi ta`kidlangan, ammo bu tarjima nusxada ulardan 8 tasi keltirilmagan.

Sayyid Muhammad Nosir ibn Muzaffar “Tahqiqoti arki Buxoro”. Nosir ibn Muzaffarning “Buxoro arki haqida tadqiqot” risolasi XX asrda arkka bag`ishlangan 1-maxsus asardir. Muallifning qayd etishicha, asar 1921-yilda tashkil etilgan “Anjumani tavorix” jamiyati tashabbusi bilan yozila boshlanadi va shu yili fors tilida yozib tugallanadi. Muallif asarni yozishda bir qancha tarixiy asarlarga tayangani haqida aytib o`tadi. Xususan, “Tarixi Narshaxiy”, Yoqut al-Hamaviyning “Mo`jam ul-buldon”, al-Balsiyning “Majmua ul g`aroyib” asari tarixchi va geograf Hofizi Abruning asari va muallifi noma`lum “Tarixi Jahonkushoy” asaridir.

Asarda Buxoroning nomlari, Buxoroning qadimgi davri, Siyovush rivoyati, Somoniy hukmdorlari, arablar va Chingizxon bosqini haqida ma`lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Ashtarxoniylar va Mang`itlar davrida sulola a`zolarining ark va unga tutash hududlarda qurdirgan imoratlar haqida aytib o`tadi. Asarni ko`zdan kechirar ekanmiz, uzoq yillar davomida ark ichida istiqomat qilgan kishi sifatidan tarixchidan ark haqida batafsil va qiziq ma`lumotlarni kutish tabiiy holdir. Lekin Nosir ibn Muzaffar ark haqida juda qisqa ma`lumotlarni keltirib o`tadi. Shuningdek, tarixchi “Ayon bo`lsinki, Somoniylar saltanati zikridan so`ng, navbati bilan Buxoroda saltanat sugan va uni poytaxt qilgan sultonlar toifasi haqida mufassal ma`lumotlar topa olmadim” – deya asarning qisqa bir shaklda yozilish sababini izohlaydi.

Amirlik davri tarixi bayon etilgan tarixiy asarlardan yana biri Abduruf Fitratning “Amir Olimxon va uning hukmronlik davri” nomli asaridir. Ushbu risola Amir Olimxon va uning hukmronlik davriga bag`ishlangan bo`lsada, muallif dastlab Olimxondan oldingi mang`it amirlari tarixiga to`xtalib o`tishni ma`qul ko`radi.

⁸ Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi Nofei. “Akademiya” nashriyoti. Toshkent. 2001

Risolaning katta qismi Olimxon davriga bag'ishlangan bo'lib, XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar, xususan, Rossiya-Buxoro munosabatlari, Buxoroning bosib olinishi, o'sha davr amaldorlari va qo'shin o'rtasidagi tarqoqlik va boshboshdoqliklar aks ettirilgan.

Muallif kitobining so'z boshisida «mazkur asarni yozishda mavjud materiallardan foydalanib» yozganligini aytib o'tadi. Darhaqiqat, Fitrat risolaning ko'pgina qismlarida Sadriddin Ayniyning «Mang'it amirlari tarixi» va Obid Ko'lobiyning «Tanzilul amsol» asarlaridan parcha va iqtiboslar keltiradi. Xususan, Fitrat o'zidan oldingi amirlar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarning katta qismini Sadriddin Ayniyning «Mang'it amirlari tarixi» asaridan foydalanib yozadi.

XX asr boshida amirlik hayotidagi mavjud ijtimoiy- siyosiy hayot, 1910– yil yanvar voqealari va ruslar bilan bo'lgan jang tafsilotlarini bayon etishda Obid Ko'lobiyning «Tanzilul amsol» asariga murojaat etadi. Asar 1930- yilda yozib tugallangan. Yuqorida keltirib o'tilgan tarixiy asarlarda mavjud voqealarni (XX asr boshlarida sodir bo'lgan hodisalar) shaxsan amir tilidan bayon etilgan asarda ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur asar Buxoro amirligining so'nggi amiri Amir Sayyid Olimxonning «Buxoro xalqining hasrati tarixi» nomli kitobidir. Asar esdaliklar shaklida yozilgan bo'lib, amirning yoshlik chog'i, Rossiyadagi ta'limi va Qarshi va Karmana viloyatlarida hokimlik qilgan davri haqida ma'lumot berishdan boshlaydi.

Shuningdek, asarda mahalliy muarrixlarda mavjud siyosiy voqealar bayoni ya'ni, Rossiya- Buxoro urushi, Rossiyaning Buxoroni bosib olishi, Buxoroliklarning ruslarga qarshi 7 yil davomida olib borgan urushi tafsilotlari amir tilidan bayon etiladi. Boshqa tarixchilarning asarlarida deyarli uchramaydigan ma'lumot, amirning Afg'onistondagi hayoti va faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Ushbu esdaliklar 1927- yili sentabrda amirning mutlaq vakili bo'lmish general Hoji Yusufbiy Muqimbiy orqali millatlar ittifoqiga taqdim qilingan⁹. Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan asarlardan ko'rishimiz mumkinki, mahalliy muarrixlar asarlarida o'z davrining mavjud ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa sohalar haqida ma'lumot beribgina qolmay, holatga nisbatan o'zlarining fikr va mulohazalarini ham keltirib o'tadilar.

Yuqoridagi asarlarning tarixiy qiymati shundaki, ularning aksariyatida tarixchilar shaxsan guvohi bo'lgan yoxud guvohlardan eshitgan ma'lumotlarini keltiradi. Ulardagi ma'lumotlar bevosita bir-birini to'ldiradi yoki aksincha, rad etishi mumkin. Bu esa muallifning jamiyatdagi o'rni, yuz berayotgan voqealarga nisbatan turlicha munosabatda bo'lganligi bilan bog'liqdir. Ma'lum bir tarixiy manbani o'rganishda tegishli asar muallifining o'zi ham asaridan ajratilmagan holda o'rganilishi lozim, chunki tarixnavis-muarrix birinchidan, ijodkor shaxsdir; ikkinchidan, u muarrix sifatida muayyan tarixnavislik konsepsiya va nazariyasining egasi bo'lib, muayyan tarixiy-madaniy an'analar vorisidir. Uchinchidan muarrixning faoliyati sotsial jamoa

⁹ Amir Sayyid Olimxon. «Buxoro xalqining hasrati tarixi», O'zbekiston SSJ «Fan» nashriyoti. Toshkent- 1991.

a'zosi sifatida, jamoaning boshqa a'zolari bilan bo'lgan uning munosabati orqali aniqlanadi. Muallifning bu munosabati esa uning asaridagi g'oyaviy va siyosiy konsepsiyasiga ta'sirini o'tkazadi.¹⁰

Yuqorida biz XIX asrning 2- yarmi XX asrning boshlarida Buxoro amirligida yozilgan tarixiy asarlarning bir nechtasini sanab o'ttik. Ularning aksariyati mavzu jihatidan bir-birini takrorlaydi. Masalan, tarixchilarning bir nechta o'z asarlarida mang'it amirlarining har birining faoliyatiga alohida to'xtalib o'tishni xohlaganlar. Shunday tarixchilardan biri XIX asrning ko'zga ko'ringan ma'rifatparvar olimi Ahmad Donishdir. Ahmad Donish o'zining "Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida mang'itlar sulolasining Amir Doniyoldan boshlab to o'z davridagi hukmdor amir Abdulahadgacha bo'lgan amirlar tarixini yoritishga harakat qiladi. Muallif o'zigacha bo'lgan amirlar tarixini yozma manbalarga tayanib yozadi. Xususan, amir Doniyol boshqaruv davriga to'xtalib, uning davrida yuz bergan salbiy voqealarni keltirib o'tadi. Uning yozishicha, Amir Doniyol davrida mamlakatda tartibsizliklar yuzaga keladi va buning sababi qilib, "mang'it mardum"larining davlat ishlariga aralashib, davlat boyliklari va xalqni talon-taroj qilganligi ko'rsatiladi. Aksariyat masjidlar va madrasalar e'tiborsiz qoldiriladi. Shuningdek, "amir va hokimlar o'rtasida mayxo'rlik, qimorbozlik, fisqu-fasod keng tarqalgan"ini yozib qoldiradi.

Doniyoldan keyin taxtga amir Shohmurod o'tiradi. Tarixchi amirni adolatparvar, sahiy, ochiqko'ngil va davlat manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yuvchi hukmdor sifatida gavdalantiradi. Amir Shohmurod o'zining turmush tarzi bilan boshqa amirlardan tubdan farq qilgan. Ahmad Donish amirning xokisor turmush tarzi kechirganligini, davlat xazinasidan o'z maoshidan tashqari pul olmaganligi, kiyinish va yeb ichish tarzini tasvirlab, Amir Shohmurod va uning faoliyatini boshqa amirlarga namuna bo'lishini xohlaydi.

Ma'lumki, ko'plab manbalarda Amir Shohmurod shaxsiyati va faoliyatini ta'riflashda ijobiy yondashilgan. Faqat Fitrat o'zining asarida amirga nisbatan salbiy baho beradi. U o'z asarida Shohmurod haqida quyidagilarni keltirib o'tadi "Shohmurod ham o'zining fe'l-atvoriga mos keladigan kishilarni, juda ko'p so'fi hamda shayxlarni o'z atrofiga to'pladi, egnini but, qornini to'q etdi. Ular esa gumroh xalq orasida Shohmurod foydasiga tashviqot yurgizib, uni "avliyo"lardan biri sifatida ko'rsatar edilar. Marv sultonligining tanazzulga yuz tutishi Shohmurodning fasod niyatlari oqibatidir. ... uning dunyoqarashi anchagina cheklangan kishi edi. U qo'shni davlatlardan panohiga najot istab kelgan siyosiy qochoqlarni hech bir gunohsiz, maxfiy holda qatl ettirardi...".¹¹

Amir Haydar faoliyatiga berilgan ta'riflarda Fitratning unga nisbatan salbiy

¹⁰ Vohidov Sh.H. Qo'qon xonligida tarixnavislik. T. : Akademnashr. 2010 y.

¹¹ Abdurauf Fitrat. Amir Olimxon va uning hukmronlik davri.

fikrlar keltirganini ko'rishimiz mumkin. Tarixchilarning ko'p qismi jumladan Ahmad Donish ham amir Haydar davrida ilm-fanga juda katta e'tibor berilganini aytib, uni maqtagan bo'lsa, Fitratda u qoralangan. Xususan, Fitrat o'z asarida "o'zining obro' e'tiborini xalq qalbiga joylash maqsadida boshqacha yo'lni tutdi– mamlakat ishlarini bir chekkaga yig'shtirib qo'yib, odamlarga dars berishga kirishdi. Xushomadgo'ylik tabiatida g'olib bo'lgan mullalar guruh-guruh bo'lib, uning oldiga borib ta'lim olar edilar", deb yozib qoldiradi.

Shuningdek, Ahmad Donish Amir Nasrulloğa ta'rif berayotgan paytida ham tarozining pallasini teng tutishga harakat qiladi, ya'ni uning salbiy xislatlarini keltirib o'tish bilan birga mamlakat rivoji uchun qilgan sa'y-harakatlarini ham aytib o'tadi. Ahmad Donish saroy tarixchilaridan o'zining haqiqatgo'yligi va riyokorlikdan uzoq bo'lganligi bilan ajralib turgan.

Sadriddin Ayniy o'zining "Esadaliklar"ida qo'liga Ahmad Donishning qoralama daftari tushgani haqida so'z yuritadi. Unda muallif o'zi haqidagi ma'lumotlarga to'xtalib, jumladan, quyidagilarni yozib qoldiradi: "Men o'zimni taniganimdan beri erkin yurganman, hech qachon va hech bir mavrida asoratga tushmaganman, saroyga mansub bo'lib, ma'mur va maoshxo'r bo'lgan vaqtlarda ham erkinligimni qo'ldan boy bermay asoratni tan olgan emasman, Podshohga yozgan maktub va arizalarim ham har xil riyokorlik, ta'makorlik va xushomadgo'ylikdan holi edi...".

Yuqoridagi fikrlarni e'tiborga oladigan bo'lsak, Ahmad Donish asarlarida berilgan ma'lumotlarni ishonchli deb ayta olamiz. Chunki muallifning tarixiy asarlarini o'qigan har bir kishi mazkur asarlarda yuqoridagi fikrlar o'z tasdig'ini topganligini ko'rishi mumkin. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, agar uning ijodiga adolat nazari bilan qaraydigan bo'lsak, tarixchi o'z asarlarida, xususan, "Risola yoxud mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" asarida o'z davrida hukmronlik qilgan amirlar va davlat amaldorlari faoliyatining deyarli faqat salbiy tomonlarini yoritadi. Ammo tanganing ikki tomoni bo'lganidek, tarix ham faqat qora sahifalardan iborat bo'la olmaydi...

O'zida mang'it amirlarining tarixini aks ettirgan manbalardan yana biri yuqorida so'z yuritilgan Abdurauf Fitratning "Amir Olimxon va uning hukmronlik davri" asaridir. Muallif ushbu davrni yoritish ekan, asarning boshidan oxirigacha barcha masalalarni tasvirlashda tanqidiy yondashadi. Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining a'zolaridan biri bo'lgan. Ma'lumki, Kolesov voqeasidan so'ng jadidlar davlatning qattiq ta'qibiga uchraydi. Ularning ko'pchiligi qamoqqa olinib, qatl qilinadi. Tirik qolganlar esa boshqa davlatga qochib ketadi. Ushbu voqealar, jadidlarning g'oyalari, ularning davlatga bo'lgan munosabati va keyinchalik sovet davri mafkurasi ta'sirida muallifdan ushbu davr boshqaruvi va undagi hukmdorlarga nisbatan nafrat uyg'otadi. Tarixchining ushbu holati esa asarda yaqqol aks etadi.

Shunday bo'lishiga qaramay risolada keltirilgan ba'zi ma'lumotlar boshqa

asarlarda uchramasligi bilan qimmatlidir. Xususan, Amir Olimxonning shaxsiy hayoti va unga bevosita ta'sir o'tkaza oluvchi yuqori davlat amaldorlari haqidagi ma'lumotlar boshqa asarlarda kuzatilmaydi. Shuningdek, biz asar orqali saroy tarixchisi Obid Ko'lobiy va uning asari bilan tanishamiz. Fitrat unga "Buxoro qalam ahllaridan biri doimo shu shaharda yashab, Kolesov voqeasidan Buxoro inqilobiga qadar saroyda sodir bo'lgan ishlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, shularning barchasini betaraf, odilona qayd etgan edi" –deb ta'rif beradi.

Fitrat o'z asarini tanqidiy fikrlarga boy bo'lganligi sababli o'quvchida mavjud ma'lumotlarning ishonchli yoki yo'qligi haqida shubha tug'ilishini bilib, tasvirlashda Ko'lobiyning "Tanzilul amsol" asaridan parcha keltiradi va bu haqda "Bu shaxs Buxoro inqilobchilaridan bo'lmaganligi tufayli uning yozganlariga hech kim shubha qilmasa kerak" deb yozib qoldiradi. O'z faoliyatining katta qismini Buxoro amirlariga xizmat qilish bilan o'tkazgan Mirza Salimbek ham o'zining "Kashkuli Salimiy" nomli asarida Buxoro amirlari faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Mirza Salimbek o'z asarida amirlarning siyosiy faoliyatlariga ko'proq urg'u beradi. Ularning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi usullari, ular davrida sodir bo'lgan ba'zi voqealar haqida yozadi. Mirza Salimbek davlat amaldori bo'lganligi tufayli ham uning asarida amirlarga nisbatan deyarli birorta salbiy fikr uchratmaymiz. Aksincha, u Amir Abdulahad davrini maqtab, "viloyatlar xotirjam va osoyishta edilar. Hech tarafdin lashkarlarning tozi-bozi yo'q edi. Buxoro atrofidagi viloyatlardan ... hamma qaram, farmonbardor edilar." deb yozib qoldiradi. Shuningdek, amir Abdulahadning Makka va Madinada, Peterburgda qurdirgan masjid va boshqa imoratlarini keltirib o'tadi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan asarlar qatoriga Sadriddin Ayniyning "Buxoro mang'it amirlari tarixi" asarini kiritishimiz mumkin. Tarixchi bu kitobida ushbu sulola vakillari tarixini sovet mafkurasi ta'sirida salbiy baholagan bo'lsada, mang'it amirlarining mamlakatni mustahkamlash va iqtisodiyot rivojiga e'tibor berganligi bilan bog'liq jihatlarni ham e'tirof etadi. Ayniqsa, muallif tomonidan Buxoro amirlari Shohmurod, Haydar, Muzaffarxon va Abdulahadxon haqida keltirilgan ayrim ijobiy ma'lumotlar boshqa tarixiy asarlarda uchramasligi bilan ahamiyatlidir.¹²

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida bir qancha tarixiy asarlar yozilgan bo'lib, biz ulardan o'sha davr amirlik hayotining ko'plab jihatlari haqida qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritishimiz mumkin. Lekin tarixiy manbalardan foydalanishda ulardagi ma'lumotlarni ishonchliligiga e'tiborli bo'lish va ularni taqqoslab, shuningdek tarixiy asarlarni ularning mualliflari bilan birgalikda o'rganish lozim.

¹² Temirov F.U. S. Ayniyning Buxorodagi jadidchilik harakatida tutgan o'rni va ijtimoiy faoliyati. (PhD) disertatsiyasi avtoreferati.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Donish. Risola yohud mang`itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi. O`.M. E. davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent: 2014.
2. Ahmad Donish. Navodirul vaqoe. O`zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. – Toshkent:1964
3. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. O`zbekiston SSJ “Fan” nashriyoti. Toshkent- 1991.
4. “Akademiya” nashriyoti, 2001 Muhammad Ali Bakjuvoni. Tarixi Nofei. Toshkent.
5. Abduaruf Fitrat. Amir Olimxon va uning hukmronlik davri.
6. Sadriddin Ayni. Esdaliklar.
7. Temirov F.U. S. Ayniyning Buxorodagi jadidchilik harakatida tutgan o`rni va ijtimoiy faoliyati. (PhD) disertatsiyasi avtoreferati.
8. Vohidov Sh.H. Qo`qon xonligida tarixnavislik. T. : Akademnashr. 2010 y.
9. Naimov I.N. Ahmad Donishning ma`rifatparvarlik faoliyati va uning ilmiy merosi. (PhD) disertatsiya avtoreferati. 2022
10. Бертельс Э.Э. Составления работ по изучению истории таджикской литературы // Труды ИВ АН СССР, 1933. – С. 87.